



O'ZBEKISTON  
FANLAR AKADEMIYASI  
TARIX INSTITUTI



**CHDPU**  
CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

# TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI  
TARIX KAFEDRASI**

# **TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

**Chirchiq– 2025**

**Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar.** Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, II Tom. – Toshkent: «Zebo print», 2025. 305 b.

**Mas'ul muharrir:**

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

**Tahrir hay'ati:**

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Ushbu to'plamda Qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislar o'rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

***Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.***

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

## **SO‘Z BOSHI**

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo'lishiga ishonch bildiraman..

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov**

## **O‘ZBEKISTON–FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO‘LI (1991–2024)**

**Egamurodov Azizbek Otajonovich**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Tarix yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning boshlanish tarixi va ahamiyati hamda 2022-yil 21-22-noyabr kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Fransiya rasmiy tashrifi va uning natijalari haqida yozilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *rasmiy tashrif, FAR, “yashil” iqtisodiyot, “Yo‘l xaritasi”, faxriylar uyi, FERRANDI Paris instituti, Yelisey saroyi, Luvr muzeyi, “Samarqandga yo‘l. Ipak va oltin mo‘jizalari” va “O‘zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo‘llari chorrahalarida” nomli ko‘rgazmalar, Hôtel national des Invalides saroyi.*

O‘zbekiston-Fransiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil fevralda o‘rnatilgan. Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi 1992-yilda ochiladi, 1995- yil esa O‘zbekistonning Fransiya elchixonasi o‘z faoliyatini boshladi va o‘zaro ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo‘lga qo‘yildi. Ikki tomonlama aloqalarning mustahkamlanishiga O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 1993-yil 27-oktabrida Fransiya bo‘lgan davlat tashrifi davomida imzolangan bir qator shartnomalar sabab bo‘ldi. Ular orasida “O‘zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi” shartnoma, hukumatlar o‘rtasida investitsiyani himoyalash va o‘zaro rag‘batlantirish haqidagi bitim, hukumatlarning madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi bitimi muhim o‘rin tutadi. 1994-yil aprelda Fransiya sobiq prezidenti Fransua Mitteranning yurtimizga qilgan davlat tashrifi oliy darajadagi siyosiy munosabatlarni boshlab berdi. Shu bilan birga, ilmiy-texnikaviy aloqalar ham shu davrda rivojlana boshladi, ya‘ni ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida talaba va professional o‘qituvchilar almashish, amaliyot, o‘qituvchilar malakasini oshirish kurslari yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida har yili yuzlab yurtdoshlarimiz Fransiyaning turli oliy o‘quv yurtlari (Parij, Lion, Marsel universitetlari) da o‘z bilimlarini oshirib kelmoqda. O‘z navbatida fransiyaliklar ham O‘zbekistonning yetakchi universitetlari ya‘ni, Toshkent iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston jahon tillari universiteti, Buxoro

va Samarqand universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 1996-yil 21-24-apreldagi Fransiyaga bo'lgan ikkinchi tashrifi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yangi pog'onaga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 8-9-oktabr kunlari Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan birinchi marta Fransiyada bo'ldi. Shavkat Mirziyoyevning ish faoliyati davomidagi bu birinchi rasmiy tashrif ikki davlat o'rtasidagi 22 yillik tanaffusdan so'ng amalga oshirildi. Ushbu tashrif davomida Fransiya va O'zbekiston davlat rahbarlari o'rtasida muzokaralar, Fransiya parlamenti rahbariyati, yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi. Oliy darajadagi O'zbekiston — Fransiya muzokaralari kun tartibidan siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va moliyaviy sohalaridagi amaliy hamkorlikni kengaytirish, turli tarmoqlarda investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish, shuningdek, madaniygumanitar almashuvlarni faollashtirish masalalari o'rin olgan. Olib borilgan uchrashuv va muzokaralar natijasida 10 dan ortiq idoralararo va hukumatlararo, shuningdek, transport, turizm, madaniyat va san'at, ekologiya, iqtisodiyot va moliya sohalarida o'zaro hamkorlik to'g'risidagi bitimlar, tashqi siyosat mahkamalari o'rtasidagi hamkorlik dasturi va boshqa ko'plab hujjatlar bo'yicha qo'shma qarorlar muhokama etildi va qabul qilindi. Shavkat Mirziyoyev Fransiyaga bo'lgan tashrifi davomida Fransiya bilan 5 milliard yevro miqdorida o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Davlatimiz rahbarining Fransiyaga bo'lgan ushbu ilk rasmiy tashrifi mamlakatlarimiz parlamentlari o'rtasidagi aloqalarning yangi bosqichi boshlanishiga turtki bo'ldi.

2019-yil 17-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari Sodiq Safoyevning Fransiya Respublikasi Yevropa ishlari va tashqi ishlar vaziri huzuridagi Davlat kotibi Jan-Batist Lemuan boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ushbu uchrashuvda Fransiya O'zbekistonning ishonchli va uzoq muddatli hamkor sifatida munosabatlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berayotgan davlat sifatida ta'kidladi. Ikki davlat vakillari orasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil oktabrida Fransiyaga tashrifi davomida imzolangan shartnomalarni amalga oshirish jarayoni muhokama qilindi. Shuning bilan birga 2022-yil 21- noyabr kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makronning o'zbek tilida chop etilgan "Yashasin, Fransiya" nomli kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ushbu bo'lib o'tgan taqdimot O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya Respublikasiga bo'lgan rasmiy tashrifiga bag'ishlangan bo'lib, tadbir Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safoyev tomonidan ochib berildi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, "Fransiya universitetlari bilan Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hozirgi kunga qadar 3 ta memorandum imzolagan. Mazkur kitobning o'zbek tilida chop etilishi – katta hodisa. Sizlar uning birinchi mushtariylaridan bo'lasizlar", - deya ta'kidlab o'tdi. Ushbu kitobni o'qish orqali Fransiyaning hozirgi davrdagi siyosati, ustuvor yo'nalishlari va bu davlatning O'zbekiston siyosatiga bo'lgan munosabatini tushunish mumkin. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 21-noyabr kuni Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan Fransiya tashrif buyurdi. Bu Shavkat Mirziyoyevning so'ngi to'rt yil ichidagi ikkinchi rasmiy tashrifi hisoblanadi. Shuni aytib o'tish lozimki, Prezidentimiz bunchalik qisqa vaqt ichida hech bir Yevropa davlatiga ikki bor tashrif buyurmagan. Bu tashrif Fransiya va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarning tobora mustahkamlanib borayotganligidan dalolat beradi.

Tashrifning birinchi kuni - 21-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu rasmiy tashrif doirasida Parij shahrida Fransiya taraqqiyot agentligi (FAR) bosh direktori Remi Riuni qabul qildi. Bu uchrashuvda O'zbekiston va Fransiya taraqqiyot agentligi o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, yangi istiqbolli loyihalar bilan boyitish masalalari yuzasidan kelishuvlar olib borildi. Ikki tomonlama imzolangan loyihalar portfeli 1 milliard yevroga yetdi. Muzokaralar davomida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini, shuningdek ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilma sohalarini joriy qilish, energetika va transportda "yashil" iqtisodiyot loyihalarini rivojlantirish, agrosanoat majmuini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar va yoshlarni o'qitish va ularning tadbirkorligini moliyalashtirish loyihalarini ilgari surish kabi ustuvor yo'nalishlarda amaliy sheriklikni chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Davlat xizmatchilari malaka oshirishlari uchun Fransiya kurslar tashkil qilinadi. Ushbu hujjatda davlat xizmatchilari uchun qisqa muddatli malaka oshirish kurslari, sohaga oid loyihalarni amalga oshirish, o'quv dasturlari va qo'shma tadbirlarni tashkil qilish belgilangan. "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki" AJ va O'zbekiston Savdosanoat palatasi o'rtasida Fransiya yetakchi bo'lgan FERRANDI Paris instituti bilan hamkorlik shartnomalari imzolandi. Hamkorlik shartnomasiga binoan FERRANDI Paris instituti filiallari Toshkent va Samarqandda o'z faoliyatlarini boshlaydi. Tomonlar o'rtasida imzolangan

shartnomalarni ro'yobga chiqarish yuzasidan "yo'l xaritasi"ni tayyorlashga kelishib oldilar va bir necha sohalarda aniq loyihalarni amalga oshirishni nazarda tutadigan 1 milliard yevrodan ortiq bo'lgan 2025-yilgacha strategik hamkorlik dasturini imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashrif davomida Parijdagi Hôtel national des Invalides saroyida Fransiya Respublikasi Savdo vaziri-delegati, O'zbekiston-Fransiya ishbilarmonlar kengashi raisi Oliver Besht bilan uchrashdi. Qayd etish joizki, Hôtel national des Invalides saroyi XVII asrda Fransiya qiroli Lyudovik XIV buyrug'iga ko'ra barpo etilgan arxitektura yodgorligidir. Bu saroyda taniqli fransuz imperatorlaridan biri Napoleon Bonapartning qabri joylashgan. 22-noyabr kuni Parijdagi faxriylar uyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rasmiy kutib olindi. Marosimda Prezidentimiz sharafiga Fransiya Respublika gvardiyasi harbiy xizmatchilari saf tortdi. Bo'lib o'tgan marosimdan so'ng O'zbekiston delegatsiyasi Yelisey saroyi - Fransiya Prezidentining qarorgohiga yo'l oldi va ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi. Bunga ko'ra, so'ngi yillarda Fransiya kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar va qo'shma korxonalar soni 3 barobar ko'paydi. Yelisey saroyidagi muzokaralardan so'ng O'zbekistonning madaniy merosiga bag'ishlangan ko'rgazmalar bilan tanishish uchun Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron o'z rafiqalari hamrohligida Luvr muzeyi hamda Arab dunyosi institutiga tashrif buyurdi. U yerda institut va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" hamda "O'zbekiston vohalari xazinalari. Karvon yo'llari chorrahalarida" nomli ko'rgazmalar tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmalarda O'zbekistonning XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid moddiy madaniyati taqdim etildi. Yurtimizning uzoq tarixini qamrab olgan ko'rgazma mamlakatimizning eng yirik 9 ta muzeylaridan 300 dan ortiq eksponatdan iborat. Hunarmand ajdodlarimizning yuksak ijodiy tafakkuri va mahoratini namoyon etadigan Nukus, Samarqand, Buxoro va Toshkent muzeylaridan keltirilgan to'qimachilik buyumlari, libos va poyabzallar, bosh kiyimlar, shuningdek, 89 ta zargarlik buyumlari ko'rgazmadan joy oldi.

Xulosa qilib aytganda, Ikki davlatga ham manfaatli bo'ladigan savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy, madaniy-tarixiy, ta'lim tizimi va davlat xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik loyihalarini imzolanishi samarali bo'ladi. Luvr muzeyida bo'lib o'tayotgan ko'rgazma O'zbekistonning turizm sohasi rivojlanishida juda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ikki mamlakat

yetakchilarining oʻzaro kelishuvlari nafaqat Oʻzbekiston va Fransiya xalqlari, balki, butun Markaziy Osiyo va Yevropa oʻrtasidagi diplomatik aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%94\\_Fransiya\\_munosabatlari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Fransiya_munosabatlari)
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2018/10/05/fransiya/>
3. [https://toshvil.uz/oz/o\\_zbekiston\\_fransiya\\_hamkorlik\\_rivojlanmoqda](https://toshvil.uz/oz/o_zbekiston_fransiya_hamkorlik_rivojlanmoqda)
4. <https://kun.uz/uz/56961613?q=%2F56961613>
5. [https://president.uz/uz/lists/categories/229?menu\\_id=12](https://president.uz/uz/lists/categories/229?menu_id=12)

### **TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI ( CHOCH VA BINKAT)**

*Eralov Xasan Turdimat oʻgʻli,  
Chirchiq Davlat pedagogika universiteti I-Bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** : Bu maqola Toshkent vohasining qadimgi shaharlari — Choch (miloddan avvalgi IV asr — milodiy X asr) va Binkat (milodiy IX–XII asrlar) ning Buyuk Ipak yoʻli tizimidagi strategik, iqtisodiy va madaniy rolini tadqiq etadi. Maqolada quyidagi jihatlar yoritilgan: Chochdan topilgan tangalar, sopol idishlar, qalʼa devorlari xarobalari, Binkat yodgorliklari (masalan, shahar plani, suv taʼminoti tizimi). Shaharlarning asosiy savdo tovarlari: ipak, metall buyumlar, qimmatbaho toshlar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** :Toshkent vohasi, Choch, Binkat, qadimgi shaharlar, savdo markazlari, ipak svdosi , qadimgi tangalar, arxeologik meros.

**Аннотация:** В статье рассматривается стратегическая, экономическая и культурная роль древних городов Ташкентского оазиса — Чача (IV в. до н.э. — X в. н.э.) и Бинката (IX-XII вв. н.э.) в системе Великого Шелкового пути. В статье рассматриваются следующие аспекты: монеты, найденные в Чаче, керамика, руины крепостных стен, а также памятники Бинката (например, план города, система водоснабжения). Особое внимание уделено основным товарам, продаваемым в городах: шелку, изделиям из металла, драгоценным камням и сельскохозяйственной продукции.

|                                                                                                                    |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>AN'ANALARI</b>                                                                                                  |     |
| <b>D.Normurodov</b> BO'STONLIQ TUMANI "SIJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA               | 93  |
| <b>D.Muhammadiyeva</b> TOSHKENT VILOYATI HAQIDA                                                                    | 96  |
| <b>S.Ergasheva</b> XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO                                                                   | 100 |
| <b>R.Do'smurodov</b> CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI                                                | 103 |
| <b>Sh.Ashurova</b> SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI                                     | 107 |
| <b>D.Egamov</b> QADIMGI TOSHKENT VOHASI                                                                            | 111 |
| <b>N.Iskandarova</b> O'ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT                                                                | 113 |
| <b>A.Egamurodov</b> O'ZBEKISTON-FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI (1991-2024) | 116 |
| <b>X.Eralov</b> TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI ( CHOCH VA BINKAT)                                          | 120 |
| <b>Ch.Ergasheva</b> O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR | 126 |
| <b>Sh.Erimbetova</b> QADIMGI O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI                                                        | 129 |
| <b>A.Erkinov</b> QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI                                                         | 132 |
| <b>S.Erlapasov</b> XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI                                  | 135 |
| <b>S.Eshboboyev</b> EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH                                                                       | 137 |
| <b>Y.Usmonova</b> DAVAN DAVLATI: FARG'ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI                  | 140 |
| <b>F.Eshimova</b> SHARQIY TURK XOQONLIGI                                                                           | 143 |
| <b>R.Yolg'oshev</b> SHOSHEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI                                                 | 146 |
| <b>D.Eshmuhamedova</b> CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI                          | 149 |
| <b>M.Eshquvvatova</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI             | 154 |
| <b>S.Esonova</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI                  | 157 |
| <b>L.Ochilodiyev</b> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI                              | 160 |
| <b>M.Rixsiboyeva</b> BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI                    | 165 |
| <b>D.Gulyamov</b> SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR                                                          | 168 |
| <b>Z.Xurramova</b> SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI                                     | 176 |

# **TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR**

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

## **Mas'ul muharrir:**

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

## **Tahrir hay'ati:**

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

*Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.